

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**RASULOVA MARXABOXON BOTIRJON QIZI**

**ZnO YUPQA QATLAMLARINING FIZIKAVIY XUSUSIYATLARIGA Al,  
Mg VA Ni KIRISHMA ATOMLARINING TA'SIRLARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NAMANGAN-2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Rasulova Marxabohon Botirjon qizi**

ZnO yurqa qatlamlarining fizikaviy xususiyatlariga Al, Mg va Ni kirishma atomlarining ta'sirlari .....3

**Расулова Мархабохон Ботиржон кизи**

Влияния примесных атомов Al, Mg и Ni на физические свойства тонких пленок ZnO .....21

**Rasulova Markhabokhon Botirjon qizi**

Influence of dopant atoms Al, Mg, and Ni on the physical properties of ZnO thin films.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**RASULOVA MARXABOXON BOTIRJON QIZI**

**ZnO YUPQA QATLAMLARINING FIZIKAVIY XUSUSIYATLARIGA Al,  
Mg VA Ni KIRISHMA ATOMLARINING TA'SIRLARI**

**01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NAMANGAN-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM 1264 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Boboyev Akramjon Yo‘ldashboyevich**  
fizika-matematika fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Ikramov Rustam G‘ulomjonovich**  
fizika-matematikafanlari doktori, professor  
**Otajonov Salim Madraximovich**  
fizika-matematikafanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiyaning Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat "\_\_\_" dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:160115, Namangan shahri Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel: (+99869) 225-10-07, faks (+99869) 225-76-75, e-mail: [nieiinfo@edu.uz](mailto:nieiinfo@edu.uz), Namangan davlat texnika universiteti 3-bino 2-qavat, ilmiy kengash xonasi)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining axborot–resurs markazi ilmiy-uslubiy bo‘limida tanishish mumkin. (№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:160115, Namangan shahri Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel: (+99869) 225-10-07

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**U.I. Erkaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi,  
f-m.f.d., professor

**A.A. Abdukarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy  
kotibi, PhD, dotsent

**N.Y. Shariboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda nanoelektronika, optoelektronika va sensor texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yangi ko'p funksiyali, yuqori sezgirlikka ega hamda tezkor ishlovchi elektron qurilmalarni yaratish, shuningdek, mavjud tizimlarni takomillashtirish masalalari yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida, zamonaviy elektronika sanoati yangi yarimo'tkazgichli materiallarni sintez qilish, mavjud materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini boshqarish imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, ZnO asosidagi yupqa plyonkalar o'zining yuqori fizikaviy xossalari tufayli quyosh elementlari, shaffof o'tkazgichlar va gaz sensorlarida keng qo'llanilib, ularning samaradorligini oshirish maqsadida ZnO strukturasi turli kirishma elementlar bilan legirlash orqali uning elektr o'tkazuvchanligi, optik xususiyatlari, kristall tuzilishi va sirt morfologiyasini boshqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ZnO asosidagi yupqa qatlamlarni olish texnologiyalarini takomillashtirish va ular asosida yuqori samaradorlikka ega, ko'p funksiyali optoelektron qurilmalarni yaratish maqsadida ushbu materiallarning tuzilmaviy, elektrofizik va optik xossalari chuqur o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ZnO tarkibiga alyuminiy (Al), magniy (Mg) va nikel (Ni) kabi elementlarni kiritish orqali hosil bo'ladigan strukturalarda yuzaga keluvchi panjara deformatsiyalari, dislokatsiyalar va boshqa mikrostrukturaviy o'zgarishlarning materialning fizikaviy xossalari ta'siri aniqlanmoqda. Mazkur jarayonda kirishma elementlarning miqdori va taqsimotini boshqarish orqali shaffof, barqaror va yuqori samaradorlikka ega optoelektron qurilmalarni yaratish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu yondashuv esa zamonaviy nano- va optoelektronika uchun yangi avlod materiallarini ishlab chiqishda dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda turli metalloksid qatlamlar asosida p-n geteroo'tishli shaffof fotovoltaik qurilmalar yaratish va ularning natijalarini amaliyotning istiqbolli sohalariga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "... iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, hayotning barcha sohalariga "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol tatbiq etish, energiya samaradorligini oshirish..."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda rux oksid yupqa qatlamlarining noyob xususiyatlariga kirishma atomlarining ta'sirini o'rganish, shaffof optoelektron materiallar yaratish va ularni tegishli asbobsozlik sohalarida ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil, 19-martdagi PQ-5032 raqamli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son “Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon va Qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning III va IV ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi. Ular “Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligining rivojlanishi” va “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish” yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida yupqa qatlamli metalloksid plyonkalarini sintez qilish, ularning olinish texnologiyalarini takomillashtirish hamda texnologik jarayonlarni optimal sharoitlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, olingan plyonkalarining tuzilish xususiyatlari va noyob fizikaviy xossalarini o‘rganish, xususan, ularni quyosh elementi sifatida foydalanish imkoniyatlarini baholash, yuqori darajadagi gaz, harorat, bosimlarga sezgir elektron qurilmalar yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, jahonning yetakchi tadqiqotchilardan, yaponiyalik Shinji Miyazaki, Hiroshi Koinuma, T. Ohta ularning ilmiy maktabi, xitoylik R.F.Wang,, Zhiqiang Chen, Janubiy Koreyalik Sang-Young Lee va ularning ilmiy maktabi tomonidan ZnO yupqa qatlamlari sintez qilinib, ularning tuzilmaviy va noyob fizik xususiyatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari, Janubiy Koreyalik J.Kim, M.Patel va ularning ilmiy guruhi tomonidan bino oynalari sifatida n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalaridan foydalanib shaffof fotovoltaiyani qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilib, ularni amaliyotga joriy qilish tavsiya qilinmoqda. Shuningdek, Rossiyalik S.I. Rembeza va uning ilmiy guruhi tomonidan ZnO va SnO<sub>2</sub> yupqa plyonkalarini olinish usullarini takomillashtirilib, ular asosida yuqori samaradorlikka ega quyosh elementlarini yaratish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, metalloksid qatlamlarga turli kirishma atomlarini qo‘shish orqali ularning muayyan gazlarga sezgirligini oshirish imkoniyatlari ham aniqlangan.

Respublikamizning yetakchi olimlari S.Z.Zaynobidinov va Sh.U.Yuldashev

boshchiligidagi ilmiy guruhlar tomonidan metall oksid yupqa qatlamlarini olish usullari ishlab chiqildi. Ushbu usullar asosida nanoo'lchamdagi plyonkalarni sintez qilish, ularning ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda elektron qurilmalar yaratish imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, yarimo'tkazgichli va shaffof tagliklarga turli tarkibdagi metall oksid qatlamlari yotqizilib, ularning fizik xossalari tekshirildi. Olingan natijalar asosida tashqi ta'sirlarga sezgir gaz sensorlari hamda xotira elementlarini yaratish imkoniyatlari ilgari surildi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan optoelektron qurilmalar amaliyotda qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning barqaror ishlashini cheklovchi omillar hali to'liq o'rganilmagan. Shuningdek, ZnO yupqa qatlamlariga turli metall kirishma atomlarini kiritish orqali ularning tuzilmaviy, morfologik, elektrofizik va optik xossalarini boshqarish hamda yangi turdagi geterostrukturalar hosil qilish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon davlat universitetining OTM-2-68 "Kristallarda kirishma-nuqson turidagi mikro-va nanobirikmalarni hosil bo'lish mexanizmlari va ularning keng funksional imkoniyatli ko'pqatlamli tuzilmalar yaratishdagi o'rni" (2017-2020 yillar) mavzusidagi loyihadairasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ZnO yupqa qatlamlariga Al, Mg va Ni atomlari bilan legirlashning optimal shart-sharoitlarini aniqlash hamda olingan plyonkalarining tuzilmaviy xususiyatlari, elektrofizik va fotoelektrik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

ZnO yupqa qatlamlariga Al, Mg va Ni atomlari bilan legirlashning optimal shart-sharoitlarini aniqlash;

Olingan plyonkalarining rentgen diffraksiyasi va atom-kuch mikroskopiyasi usullari yordamida tuzilmaviy o'zgarishlarni o'rganish;

ZnO yupqa plyonkalariga Al, Mg va Ni kirishma atomlari bilan legirlashning plyonkalar elektr o'tkazuvchanligi, harakatchanligi va barqarorligiga ta'sirini baholash;

ZnO asosidagi plyonkalarining optik shaffofligi va fotosezgirliги xususiyatlarini tahlil qilish;

n-ZnO-p-NiO geterotuzilmalarini tayyorlash, ularning shaffof elektronika va optoelektronika sohalarida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Al, Mg va Ni kirishma atomlari bo'lgan ZnO yupqa qatlamlari va ular asosidagi n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Al, Mg va Ni kirishma atomlari bo'lgan ZnO yupqa qatlamlari va ular asosidagi n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalar olishning eng maqbul texnologik shart-sharoitlarini aniqlash, tuzilmaviy xususiyatlarni tadqiq qilish hamda olingan yupqa qatlamlarning elektrofizik va optik xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Belgilangan vazifalar asosida, turli kirishma atomlari kiritilgan rux oksidining tuzilmaviy tadqiqotlar uchun XRD-7000 rentgenodifraktometrdan, morfologik tadqiqotlar uchun Solver Next atom-kuch

mikroskopidan, optik o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun Cary Eclipse spektrometridan va elektrofizik kattaliklarni aniqlash uchun HMS-7000 Xoll qurilmasidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Al, Mg va Ni kirishma atomlari qo'shilgan ZnO yupqa qatlamlari hamda ular asosidagi n-ZnO/p-NiO geterotuzilma yupqa plyonkalari spreypiroliz usuli bilan o'stirildi va sintez qilish texnologiyasining eng maqbul shart-sharoitlari (purkash tezligi 8 ml/min, bosim 2 atm, taglik va purkovchi soplo orasidagi masofa 80÷85 sm, zolni purkash va tanaffus davomiyligi mos ravishda 1 daqiqqa va 30 soniya) aniqlangan;

Mg, Al va Ni kirishma atomlari bilan legirlangan ZnO asosidagi yupqa qatlamlar vyursit tuzilishli geksagonal kristall panjaraga ega bo'lib, ularning C6/mmc fazoviy guruhga mansubligi rengentuzilmaviy tadqiqotlar natijalari asosida aniqlangan;

o'stirilgan plyokalarining elektrofizik tadqiqot natijalariga asosida Al, Mg va Ni atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalarda solishtirma qarshiligi  $\rho=0.43\div 2.58 \Omega \text{ cm}$ , tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $n=1.9\times 10^{18}\div 5.4\times 10^{17} \text{ cm}^{-3}$  hamda zaryad tashuvchilar harakatchanligi  $\mu=7.02\div 1.85 \text{ cm}^2/\text{V}\times\text{s}$  qiymatlarga ega ekanligi aniqlangan;

kirishma atomlari kiritilgan ZnO optik o'tkazuvchanligi va taqiqlangan soha kengligi quyidagicha: AZO uchun  $T=81\text{-}90\%$ ,  $E_g=3.2\text{-}3.31\text{eV}$ ; MZO uchun  $T=70\text{-}85\%$ ,  $E_g=3.2\text{-}3.47\text{eV}$ ; ZnO: Ni uchun  $T=80\text{-}74\%$ ,  $E_g=3.2\text{-}3.1\text{eV}$  o'zgarishi mumkinligi aniqlangan;

ZnO, NiO plyonkalari va ZnO/NiO geterotuzilmalarining man etilgan soha energiyalarini mos ravishda 3,27 eV, 3,81 eV va 3,26 eV bo'lgan qiymatlari aniqlandi hamda ularni xossalari o'rganilib, quyosh energetikasi va optoelektronikada foydalanish mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** ZnO hamda kirishma atomlari sifatida Mg, Al, Ni va NiO dan iborat yupqa qatlamlarini spreypiroliz usulida o'stirishning optimal parametrlari aniqlangan;

o'stirilgan yupqa qatlamlarning tuzilmaviy, fotoelektrik va optik xossalari aniqlanib, ularni optoelektronika va shaffof elektronikada qo'llashga tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalarni jahon amaliyotida qo'llanilishi bilan yuqori aniqlikka ega bo'lgan zamonaviy rentgen difraktometrlari, atom kuch mikroskopi, elektrik hamda optik xossalarni tekshiruvchi qurilmalardan foydalanishga, shuningdek, olingan natijalar adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan qiyoslashga; yaxshi sinovdan o'tgan eksperimental va o'zaro bog'lanmagan kompleks usullardan foydalanish; natijalarning takroriyiligiga; hodisalarda umumiy fizikaviy tasavvurlar bilan xulosalarning izchilligiga; ularni umumiy fizikaviy qonuniyatlar va IT texnologiyalardan foydalanish bilan taqqoslashga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kirishma atomlari (Mg, Al, Ni) ni ZnO ning

elektrofizik va fotoelektrik jarayonlariga, tok o'tish mexanizmlariga, ularni tanlanma sezgirligi asosidagi xususiyatlariga, optik o'tkazuvchanlik, yorug'likning yutilishini hamda taqiqlangan soha kengligini o'zgarishiga ta'siri va fizik mohiyatini o'rganish mazkur sohaga tegishli bo'lgan nazariy bilimlar va tushunchalarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kirishma atomlari (Mg, Al, Ni) bilan legirlangan ZnO hamda n-ZnO/p-NiO asosida tayyorlangan plyonkalar fotosezgir, samaradorligi yuqori bo'lgan ko'p funksiyali elektron asboblari, shaffof elektronika hamda quyosh elementlarini ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.**

Sprey piroliz usuli yordamida o'stirilgan Al, Mg va Ni kirishma atomlari bilan legirlangan ZnO yupqa qatlamlarining hamda n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalarini tuzilmaviy asoslari, elektrofizik va fotoelektrik xossalarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

ZnO va NiO plyonkalari hamda ZnO/NiO geterotuzilmalari uchun optimal issiqlik bilan ishlov berish sharoitlari, ZnO, NiO plyonkalari va ZnO/NiO geterotuzilmalari uchun man etilgan soha energiyalarini yuqori aniqlikda tekshirish usullari hamda n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalari orqali tok o'tish jarayonining tunnel-rekombinatsiya mexanizmiga bo'ysunishi kabi ilmiy-amaliy natijalardan "FOTON" aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqariladigan yarimo'tkazgichli elektron qurilmalar yaratishda foydalanilgan (2024-yil, 157-sonli ma'lumotnoma). Olingan ilmiy natijalardan tajriba qurilmalarida optoelektronik asboblarni tayyorlash va ularning fotoelektrik xossalarini yaxshilash imkonini bergan.

ZnO plyonkalarining elektrofizik va optik xususiyatlariga Al, Mg hamda Ni kirishma atomlarining ta'siri, shuningdek, n-ZnO/p-NiO geterotuzilmalarining volt-ampere xarakteristikalariga yorug'lik nurlanishining ta'sirini aniqlash usullari OT-F2-71 raqamli "O'ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi deformatsiyalangan p-n o'tish volt-ampere xarakteristikasiga yorug'likning ta'sirini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyiha grantini bajarishda qo'llanilgan (Namangan muhandislik-qurilish instituti, 2025-yil 11-yanvar, № 06/10-09/48-sonli ma'lumotnoma). Ilmiy natijalardan foydalanish *p-no'tishning yorug'likka sezgirligi va fotodetektor xususiyatlarini optimallashtirish hamda yuqori samarali optoelektronik qurilmalarni yaratish imkonini bergan.*

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 9 ta jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Natijalar asosida jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'z OAK sining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shuningdek, 2 ta maqola Scopus ma'lumotlar bazasida qayd etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha 1 ta EHM uchun dasturiy guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardantashkil topgan. U 114

sahifada ifodalaniib, 29 ta rasm, 8 ta jadval va 98 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurligi qisqacha asoslab berilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan mosligi ko'rsatilgan. Dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari qisqacha ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqot natijalarining bajarilishi va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiya ishining **“ZnO metalloksidining tuzilishi, fizik xususiyatlari va uning amaliyotda qo'llanilishi”** nomli birinchi bobida ZnO metalloksidining umumiy fizik, elektr va optik xossalari, shuningdek, tadqiqot holati va qo'llanilish sohalari bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlar tahlili natijasida metalloksid yupqa qatlamlarining yarimo'tkazgichli yorug'lik diodlari (elektr energiyasini yorug'lik nurlanishiga aylantiruvchi), quyosh elementlari (yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi), gaz sensorlari va fotokatalitik qurilmalar kabi texnologiyalarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgani aniqlangan. Bundan tashqari, ZnO ga kirishma atomlarining kiritilishi uning elektrik, fotoelektrik va optik o'tkazuvchanligi hamda energiya sohasining o'zgarishini ta'minlashi qayd etilgan. Ushbu xususiyatlarni chuqur o'rganish va ular asosida turli xil energiya konvertorlarini ishlab chiqish yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Materiallar va eksperimental tadqiqot usullari”** nomli ikkinchi bobida ZnO metalloksidining ko'p komponentli yupqa qatlamlarini spreypiroliz usuli yordamida o'stirish imkoniyatlari, asosiy texnologik usullar, shuningdek, elektrofizik va tuzilmaviy xarakteristikalarini o'rganilgan. Ushbu bob metalloksid materiallarini olishning asosiy texnologik usullari, ularning elektrik va optik xarakteristikalarini tadqiq qilishda qo'llanilgan eksperimental usullar, shuningdek, shisha tagliklarga Mg, Al, Ni va p-NiO kirishma atomlari asosida o'stirilgan n-ZnO metalloksid qatlamlarining sintez usullari va texnologiyasi tavsifiga bag'ishlangan.


Bobda, shuningdek, shisha tagliklarga ZnO hamda Mg, Al va Ni kirishma atomlari asosida yupqa qatlamlarni spreypiroliz usuli yordamida o'stirish va sintez qilishning optimal shart-sharoitlari aniqlangan, jumladan: havo bosimi–2 bar, purkash tezligi–8 ml/min, zolni purkash davomiyligi–1 daqiqa, taglik haroratini tiklab olish uchun tanaffus–30 soniya, changlatuvchi soplo va taglik orasidagi masofa 80–85 sm. Bundan tashqari, bobda yupqa plyonkalarining tuzilmaviy xossalari o'rganish uchun Empyrean Malvern difraktometri, elektrik xossalari tekshirish uchun HMS-7000 Xoll qurilmasi hamda optik xossalarni tahlil qilish uchun SPEKS SSP-715 M spektrofotometri kabi standart qurilmalar va ularning texnik tavsiflari bayon qilingan.

Dissertatsiya ishining “Al, Mg va Ni kirishma atomlari kiritilgan rux oksidining tuzilmaviy, elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari” nomli uchinchi bobida Mg, Al, Ni bilan legirlangan ZnO metalloksid plyonkalarini tuzilmaviy, morfologik, elektrofizik hamda fotoelektrik xossalari o‘rganilgan.

1-rasmda o‘stirilgan ZnO yupqa qatlamlarining rentgenogrammasi keltirilgan bo‘lib, uchta kristallografik yo‘nalishida yuqori intensivlikdagi tuzilmaviy aks ettirishlar kuzatilgan. Ya‘ni, (100) kristallografik yo‘nalishiga mos holda,  $2\theta = 31,42^\circ$  burchak sochilishlarida  $d/n = 0,2774$  nmli tekisliklar oralig‘iga tegishli, (002) kristallografik yo‘nalishiga mos holda,  $2\theta = 34,48^\circ$  burchak sochilishlarida  $d/n = 0,2581$  nmli tekisliklar oralig‘iga tegishli, (101) kristallografik yo‘nalishiga mos holda,  $2\theta = 36,34^\circ$  burchak sochilishlarida  $d/n = 0,249$  nmli tekisliklar oralig‘iga tegishli bo‘lgan selektiv tabiatga ega bo‘lgan, yuqori intensivlikdagi tuzilmaviy akslanishlar kuzatilgan. (002) kristallografik yo‘nalishiga tegishli tuzilmaviy chiziqning yuqori intensivlikdaligi ( $\sim 10^5 \text{ imp}\cdot\text{c}^{-1}$ ) hamda ushbu cho‘qqining yarim kengligining ( $\text{FWHM} = 3.6 \cdot 10^{-3} \text{ rad}$ ) ingichkaligi o‘stirilgan plyonkaning kristall panjarasining mukammalligi darajasining yetarlicha yuqori ekanligidan dalolat beradi. Eksperimental natijalarini tahlil qilish mobaynida ZnO qatlamlarining C6/mmc fazoviy guruhga tegishli geksogonal kristall panjara ega bo‘lib, vyurtsit tuzilishiga ega ekanligini aniqlandi.



**1-rasm. O‘stirilgan ZnO yupqa qatlamining rentgenogrammasi**




**2-rasm. ZnO yupqa qatlamining AKM tasviri**

2-rasmda ZnO yupqa qatlamlarining uch o‘lchamli AKM tasviri keltirilgan. Uch o‘lchovli tasvirdan, plyonka sirtida o‘stirish jarayonida turli xil o‘lchamdagi nanoobyektlar shakllanganini ko‘rish mumkin. Ushbu nanoobyektlar asosan gumbazsimon geometrik shaklga ega bo‘lib, ularning yonbosh o‘lchamlari – diametrlari  $50 \div 100 \text{ nm}$ , balandliklari esa  $12 \div 16 \text{ nm}$  oralig‘ida joylashgan. Shuningdek, nanokristallitlarning balandlik bo‘yicha taqsimlanish profilidan ular  $10 \div 18 \text{ nm}$  oraliqda yotishi hamda ikki o‘lchovda bo‘lishi aniqlangan. Bu esa ularning kvant o‘ralar ekanligidan dalolat beradi.

3-rasmda Al konsentratsiyasi 2 at.%, 4 at.% va 6 at.% ga teng bo‘lgan sof hamda alyuminiy bilan legirlangan ZnO yupqa plyonkalarining rentgenogrammalari tasvirlangan bo‘lib, ular legirlanmagan ZnO yupqa

qatlaminikiga nisbatan farq qiladi. Kichik burchakli sochilishda kuzatilgan diffuzion akslanishlarning elastik fon sathi legirlangan atomlar miqdori oshishi bilan kamayadi. Ya'ni, Al atomlari miqdorining oshishi natijasida o'stirilgan yupqa qatlamlarda kislorod atomlarining tarqalishidagi asosiy fon aralashmalari bo'yicha kristall panjaralardagi notekislik kamayishi kuzatiladi. Shuningdek, 2% Al atomlari bilan legirlangan qatlamlarning rentgenogrammasida (100) tuzilmaviy chizig'i uchun akslanish intensivligi 16,1%, (101) struktural chizig'i uchun esa 26,8% ga oshishi kuzatiladi. Bu esa,  $Zn^{2+}$  ionlarining  $Al^{3+}$  ionlariga almashtirilganligini ko'rsatadi (Al ionining radiusi 0,51 Å, Zn ionining radiusi esa 0,74 Å). Biroq, Al atomlarining miqdori 2% dan yuqori bo'lsa, ushbu akslanishlarning intensivligi mos ravishda 4,34% va 2,4% ga kamayadi. Bu holat (100) va (101) struktural chiziqlari o'rniga yangi akslanishlar paydo bo'lishidan dalolat beradi. Ushbu akslanishlar ZnO va  $Al_3O_2$  birikmalarining kristallografik yo'nalishlariga tegishli bo'lib, (220) va (311) chiziqlari bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlar ZnO kristall tuzilmasida nuqsonlar hosil bo'lishiga, plyonka kristalligining pasayishiga, nomukammalliklarning oshishiga hamda kislorod vakansiyalarining ko'payishiga olib keladi.

4-rasmda nikel atomlari konsentratsiyasi 1 at.%, 3 at.% va 5 at.% bo'lgan ZnO:Ni yupqa qatlamlarining rentgenogrammalari keltirilgan.




**3-rasm. Sof ZnO va turli xil konsentratsiyali AZO yupqa plyonkalarining rentgen nurlanishi difraksiya tasvirlari.**

**4-rasm. Sof ZnO va turli xil konsentratsiyali ZnO:Ni yupqa plyonkalarining rentgen nurlanishi difraksiya tasvirlari.**

Rentgenogrammalardan (002) kristallografik yo'nalishining intensivligi ZnO va ZnO:Ni 1 at.% plyonkalarida eng yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa, ZnO va ZnO:Ni 1 at.% plyonkalarining (002) tekisligida ustun yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatadi. ZnO:Ni 3 at.% va 5 at.% yupqa qatlamlarining ustun

yoʻnalishi (101) tekisligiga oʻzgarishi va Ni yoki NiO ning boshqa ikkilamchi fazalari skanerlash oraliqida koʻrinmasligi, ZnO:Ni tuzilmasidagi Zn<sup>2+</sup> atomlarining Ni<sup>2+</sup> atomlari bilan almashinishi mumkinligini koʻrsatadi. Nikel atomi kiritilgan ZnO plyonkalarining panjara parametrlarida biroz oʻzgarishlar kuzatildi. Bu esa, Zn<sup>2+</sup> va Ni<sup>2+</sup> ionlari oʻrtasidagi ion radiusining kichik farq mavjudligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Panjara doimiysi "a" deyarli oʻzgarmay qolishi, ammo "c" ning qiymati Ni atomining konsentratsiyasi oshishi bilan biroz kamayishi aniqlandi. Shuningdek, Ni atomining konsentratsiyasiga qarab (101) kristallografik yoʻnalishida intensivlik oshishi kuzatiladi.

5-rasmda Mg konsentratsiyasi 1 at.%, 3 at.%, 5 at.%, 7 at.% va 15 at.% boʻlgan ZnO:Mg (MZO) yupqa qatlamlarining rentgenogrammalari keltirilgan. MZO plyonkalarining rentgenogrammalarida Mg va uning birikmalari bilan bogʻliq yuqori intensivlikdagi aks ettirishlar aniqlanmagan. Bu esa Mg atomlari ZnO kristall panjaralariga nuqsonlar shaklida joylashganligini va Mg bilan legirlangan ZnO ning vyurtsit strukturasi oʻzgarmasligini koʻrsatadi. Shuningdek, Mg atomlarining ZnO tuzilmaviy xususiyatlariga taʼsirini oʻrganish maqsadida uchta asosiy (100), (002) va (101) kristallografik yoʻnalishlari uchun tuzilmaviy akslanishlarning holati oʻrganildi. MZO plyonkalarida Mg konsentratsiyasi 1 at.% dan 7 at.% gacha oshishi natijasida diffuzion akslanishlar kichik burchaklar tomonga  $\Delta\theta = 0.07^\circ$  ga siljigan. Mg miqdori ortishi bilan (100) va (101) rentgenogrammalarining intensivliklari oʻxshash boʻlib boradi. (002) kristallografik yoʻnalishi uchun tuzilmaviy aks ettirishlarning intensivligi asta-sekin kamayadi. Bu esa "c" parametrining 5.212 Å dan 5.136 Å gacha kamayishi bilan bogʻliq.



**5-rasm. ZnO:Mg ning 1 at.%, 3 at.%; 5at. %;7 at. % va 15 at. % yupqa plyonkalarining rentgen nurlanish diffraksiya tasvirlari**

Shuning uchun ZnO kristall tuzilishida  $Zn^{2+}$  ionlarining  $Mg^{2+}$  ionlariga almashtirilishi c tarmoq parametrining kamayishiga olib keladi. Bu holat  $Mg^{2+}$  ionining radiusi (0.66 Å)  $Zn^{2+}$  ionining radiusiga (0.74 Å) nisbatan kichikroq ekanligi bilan izohlanadi.


Tadqiqot natijalari yordamida ZnO plyonkalarining barcha difraksiyaviy akslanishlari vyurtsit tuzilishiga ega ekanligi aniqlandi. (002) tuzilmaviy akslanishning intensivligi boshqa difraksion chiziq'larga qaraganda ancha yuqori bo'lib, bu ZnO plyonkalari polikristall tuzilishga ega ekanligini va ularning kristallari asosan "c" o'qi bo'ylab yo'nalganligini ko'rsatadi. Kirishma atomlar konsentratsiyasining oshishi ZnO plyonkasidagi kristallografik yo'nalishlarning o'zaro nisbatini o'zgartiradi. Ayniqsa, (002) kristallografik akslanishning intensivligi pasayadi. Xuddi shunday jarayon Al va Ni bilan legirlangan yupqa qatlamlarda ham kuzatiladi. Ya'ni, ushbu elementlarning konsentratsiyasi ortishi ZnO plyonkasining tuzilmaviy xususiyatlariga ta'sir ko'rsatib, uni boshqa fazaviy guruhga o'tishiga sabab bo'ladi.

O'stirilgan plyonkalarining elektrofizik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Al bilan legirlangan ZnO plyonkalarda solishtirma qarshilik  $\rho=0.53\div 2.58 \Omega\cdot\text{cm}$ , tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $n=1.73\times 10^{18} \div 5.4\times 10^{17} \text{ cm}^{-3}$ , zaryad tashuvchilar harakatchanligi esa  $\mu=6.82\div 4.47 \text{ cm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$  bo'ldi. Mg kiritilgan ZnO plyonkalarda esa solishtirma qarshilik  $\rho=0.43\div 4.26 \Omega\cdot\text{cm}$ , tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $n=(2.05\times 10^{18} \div 7.9\times 10^{17} \text{ cm}^{-3})$ , zaryad tashuvchilar harakatchanligi  $\mu=7.02\div 1.85 \text{ cm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$  ekanligi aniqlandi. Ni kiritilgan ZnO plyonkalarda esa solishtirma qarshilik  $\rho=0.58\div 2.38 \Omega\cdot\text{cm}$ , tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $n=1.9\times 10^{18} \div 6.3\times 10^{17} \text{ cm}^{-3}$ , zaryad tashuvchilar harakatchanligi esa  $\mu = 5.72\div 4.14 \text{ cm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$  bo'ldi.

Alyuminiy bilan legirlangan ZnO plyonkalarining optik o'tkazuvchanligi asosan ko'rinadigan va infraqizil sohalarda yuqori bo'lib, 81% dan 90% gacha o'zgaradi (6-rasm)<sup>2</sup>.

---


<sup>2</sup> Зайнабидинов С.З., Бобоев А.Й., Расулова М.Б., Гуломов Б.Д., Юнусалиев Н.Ю. Структура и оптические свойства прозрачных проводящих тонких пленок ZnO, легированных алюминием// Доклады Академии Наук. Тошкент, 2023. Стр.31-36.




**6-rasm. AZO yupqa qatlamlarining optik o'tkazuvchanligini to'lqin uzunligiga bog'liqligi.**

Mg kiritilgan ZnO (MZO) plyonkasining shaffofligi ZnO plyonkasiga nisbatan 15% ga oshdi va 15 at.% Mg qo'shilishi bilan eng yuqori qiymatga erishdi, ya'ni spektrning ko'rinadigan va infraqizil sohalarida shaffoflik 85% ga teng bo'lib, yuqori shaffoflik chegarasi ultrabinafsha sohasiga to'g'ri keladi (7-rasm).

Nikel kiritilgan ZnO plyonkalarining optik o'tkazuvchanligi esa maksimal ~74% qiymatga ega bo'lib, Ni konsentratsiyasining ortishi plyonkalarining shaffofligini pasaytiradi (8-rasm).



**7-rasm. MZO yupqa qatlamlarining a) optik o'tkazuvchanligini to'lqin uzunligiga bog'liqligi**



**8-rasm. ZnO:Ni yupqa qatlamlarining optik o'tkazuvchanligini to'lqin uzunligiga bog'liqligi.**

ZnO:Ni yupqa qatlamlarda shaffoflikning pasayishi esa bir qancha omillar bilan bog'liq: nikel ZnO tuzilmasiga nuqtaviy nuqson sifatida kirib, yorug'likning tarqalish markazlarini hosil qiladi, natijada shaffoflik pasayadi; dislokatsiya zichligi ortib, yorug'likning sochilishiga sabab bo'ladi; nikel nuqsonlari

qo'shimcha energiya sathlarini hosil qilib, ma'lum to'lqin uzunliklarida yorug'lik yutiladi va umumiy shaffoflik kamayadi.


Barcha o'rganilayotgan AZO plyonkalar uchun yutilish chegarasi 365–390 nm oralig'ida kuzatildi (6-rasm). MZO yupqa qatlamlarining optik yutilish spektrlari esa ultrabinafsha (UB) sohasida, 350–400 nm to'lqin uzunligi oralig'ida joylashgan bo'lib, barcha namunalar uchun yutilish qiymatlarining keskin pasayishi kuzatildi. Magniy konsentratsiyasining oshishi yutilish chegarasini kichikroq to'lqin uzunligi tomon siljitdi (7-rasm). Optik yutilish sohasi odatda Mg konsentratsiyasining ortishi bilan spektrning ko'k rang tomon siljishini ko'rsatadi. Bu esa, UB sohasida yutilishning yaxshilanishi va ko'rinadigan diapazonda yutilishning kamayishi bilan izohlanadi. ZnO:Ni yupqa qatlamlarining optik yutilish chegarasi 350–380 nm to'lqin uzunligi oralig'ida bo'lib, ushbu diapazonda optik yutilish nisbatan katta ekanligi aniqlandi. 380–400 nm oralig'ida esa barcha namunalar uchun optik yutilish qiymatlarining keskin kamayishi kuzatildi (8-rasm).

ZnO plyonkalari va Mg qo'shilgan ZnO plyonkalari uchun taqiqlangan soha kengligi ( $E_g$ ) Taus usuli yordamida aniqlangan. Mg kiritilgandan so'ng, ZnO ning taqiqlangan soha kengligi 3,20 eV dan 3,42 eV gacha oshgani kuzatildi. Bu holat MZO plyonkasining kristall panjarasida  $Mg^{2+}$  ionlarining  $Zn^{2+}$  ionlari bilan almashtirilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Zn va Mg atomlarining elektromanfiyligi o'rtasidagi farq tufayli  $Mg^{2+}$  va  $O^{2-}$  ionlarining o'zaro ta'siri  $E_g$  ning oshishiga olib keladi. MgO birikmasi ( $E_g = 7,7$  eV) ZnO ( $E_g = 3,20$  eV) ga nisbatan kattaroq taqiqlangan soha kengligiga ega bo'lib, bu ham  $E_g$  ning oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, Burstein-Moss hodisasi ham bu jarayonga ta'sir qilishi mumkin. Nikel konsentratsiyasining 1 at.%, 3 at.% va 5 at.% gacha ortishi esa taqiqlangan soha kengligini 3,20 eV dan 3,07 eV gacha kamayishiga olib keldi. Nikel ZnO kristall panjarasida rux (Zn) o'rnini egallab, electron strukturaning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu esa, taqiqlangan soha kengligida qo'shimcha energetik sathlarning hosil bo'lishi yoki mavjud o'tkazuvchanlik va valentlik sohalarining o'zgarishiga olib keladi.

